O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor: __________ O.Sh.Bazarov

“____” __________ 2024 yil

Ro‘yxatga olindi

№ 07/02/053

“27” iyun 2024 y.

# “KASBIY PEDAGOGIKA”

# FANINING O'QUV DASTURI

(Kundizgi)

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 110 000 – Ta’lim

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60112400 – Professional ta’lim (Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish)

Qarshi 2024-yil

| Fan/modul kodi<br>Kasbiy pedagogika | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>4 | Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/ rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Kasbiy pedagogika | 60 | 90 | 150 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarni ta'lim, tarbiya, o'qish hamda rivojlanishning pedagogik qonuniyatlarini o'rganadi, pedagogik tamoyillar va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlari, professional ta'lim muassasalari turlari va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda professional ta'limni tashkil etish va boshqarish, ushbu jarayonlarda ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali ularning bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini ta'minlashdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limni rivojlanish tarixi, ta'limning uzluksizligi va davomiyligi, uzluksiz ta'limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi, uzluksiz kasbiy ta'lim tushunchalarini, kasbiy ta'limni tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi asosiy normativ hujjatlar, kasb ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablar, professional ta'limni boshqarish tizimi, talabalarga pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida tadbiq etishni o'rgatishdan iborat.

**II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1- mavzu. "Kasbiy pedagogika" fan sifatida.**

O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohatlari. Professional ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.

"Kasbiy pedagogika" fanining maqsad va vazifalari. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari: bilim, ko'nikma, malaka, kasb, ixtisoslik, mutaxassislik, kasbiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tarbiya, kasbiy mahorat.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunar ta'limiga qo'yiladigan talablar. "Kasbiy pedagogika" fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.

**2- mavzu. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi.**

Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, halq pedagogikasi tajribasiga tayanish. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari. Ular barcha avlod olimlari, mutafakkirlari, pedagoglari, ishlab chiqarish va halq xunarmandchilik ustalari tajribasi va rivojlanishini aks etadi. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim.Turkistonda VIII-XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribasi. Kasbiy ta'lim tizimida milliy islohotlar yo'nalishlarining mohiyati: ta'limning O'zbekiston halqlari madaniyati bilan boyitilgan milliy tarix, milliy an'analar va odatlar bilan uzviy bog'liqligi, ta'limni milliy rivojlanish, boshqa halqlar madaniyati va tarixiga hurmat uyg'otishning muhim vositasi sifatida tan olinishi.

**3- mavzu. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohotlari.**

Ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik.

Ta'lim tizimi islohotlarining mohiyati: izchillik, ochiqlik, fuqarolarning ta'limga bo'lgan extiyojlarini qoniqtira olish, jamiyatning talablariga javob berish, jahon kasb va ta'lim bozorida samarali faoliyat yuritish va raqobat qila olish. 2020 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mazmun mohiyati.

**4- Mavzu. Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari.**

"Uzluksiz ta'lim" tizimi tushunchasi. Uzluksiz ta'lim tuzilishi. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Professional ta'lim to'g'risidagi PF-5812 farmonning mohiyati. Kasbiy ta'lim turlari va tizimi. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari. Uzluksiz ta'limi tizimida professional ta'limning o'rni va ahamiyati. Kichik mutaxassis, kasb, ixtisoslik tushunchalari. Kasb ta'limi o'qituvchisi va unga qo'yilgan talabalar. Professional ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash muammolari.

**5- Mavzu. Ta'limni standartlashtirish.Professional ta'lim mazmuni, maqsad va vazifalari.**

Standart, standartlashtirish meyorlari tushunchalari. Ishlab chiqarishda standartlashtirish. O'zbekiston Respublikasida "Standartlashtirish to'g'risida" gi Qonun. Standartlashtirish, ta'lim standarti, professional ta'lim tizimida ta'lim standarti tushunchalari. Standartlashtirishning meyoriy elementlari. Standartlashtirish turlari.

Professional ta'lim davlat ta'lim standartlariningsh funktsiyalari Professional ta'lim DTS maqsadi, funktsiyalari, vazifalari, tamoyillari. Professional ta'lim DTS. DTSga, uni ishlab chiqish va amalda qo'llashga qo'yiladigan talablar. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari. DTSning tarkibiy qismlari. Standartlashtirish obyektlari. DTS mazmuni. DTSning Davlat va milliy-mintaqaviy tarkibiy qismlari.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar. DTS kiritilishi kasb-hunar kollejlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholashning asosiy maqsadi sifatida. "Ta'lim sifati",

"Ta'lim sifatini nazorat qilish", "Ta'lim sifatini baholash" tushunchalari. Professional ta'limi mazmuniga (davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari) qoyilgan talablar.

**6-mavzu. O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari, kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori**

O'zbekiston respublikasi halq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat - qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes.

Professional ta'limdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi. Professional ta'limda kichik mutaxassis tayyorlash tizimi. Professional ta'limda mutaxassislik va kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori maqsadi va obyektlari. Mutaxassislik, kichik mutaxassis, kichik mutaxassis vazifalari, kasbiy faoliyat sohasi, Professional ta'limda ta'lim yo'nalishlari tushunchalari. Tasniflagich tuzilmasi.

**7-mavzu. Kasb ta'lim pedagogikasining didaktik tamoyillari**

Professional ta'lim jarayonlari taxlili va asosiy dadaktik tushunchalar. Professional ta'limda umumdidaktik tamoyillar onglilik va faollik ilmiy sistemalik nazariy va amaliy birligi ta'lim tarbiya birligi ko'rsatmalilik. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb- hunar ta'limida qo'llash.

**8-mavzu. Professional ta'limda ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchining asosiy vazifalari**

O'qituvchining lavozim vazifalari. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar. Professional ta'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. O'quv jarayoni didaktikasi, rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalarini o'zgartirib turish. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari. O'qituvchining metodik ishlari. Professional ta'limda o'qituvchining tarbiyaviy ishlari bo'yicha vazifalari.

**9-mavzu. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari**

Ta'lim shakllari va turlari. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari va turlari. Nazariy mashg'ulot va uni tashkil etishga qo'yilgan talablar. Amaliy mashg'ulotlar va ularni tashkil etishga qo'yilgan talablar. Sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulot turlari va shakllari. Mashg'ulotlarni o'quv ustaxonarida tashkil etish metodikasi.

**10 - mavzu. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkiliy vositalari ularni turkumlanishi**

Ta'lim vositalari turlari. Ta'limning texnik vositalari. Didaktik materiallar va ularni tayorlashga qoyilgan talablar. Chizmali organayzerlar va ularning turkumlanishi. O'quv ustaxonalari jixozlanishiga qo'yilgan talablar.

**11 - mavzu. Ta'lim metodlari. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkil etishda ulardan foydalanish metodikasi**

Ta'lim metodlari turlari va ularni turkumlanishi. Nazariy ta'lim metodlari. Amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan ta'lim metodlari. Muammoli ta'lim metodlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash metodikasi. Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda interfaol ta'lim metodlarini qo'llash metodikasi.

**12-mavzu.Pedagogik faoliyati va pedagogik qobiliyat**

O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ. O'qituvchining pedagogik qobiliyati. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik muloqot qobiliyatlari va faoliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi, materialni ipidan ignasigacha bilishi, unga nihoyatda qiziqishi, oddiy tadqiqot ishlarini olib borishi to'g'risida tushunchalar xosil qilish.

**13-mavzu.O'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy maxorati**

Kasbiy mahorat haqidagi ta'riflar. Pedagogik mahorat komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish. Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to'g'ri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o'quvchilar hatti-harakatlariga o'zining munosabatini ko'rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko'nikmalarini boshqarishni bilish.

**14-mavzu.Kasb-hunar ta'limini boshqarish**

Pedagogik, psixologik boshqaruv to'g'risida ma'lumot. Boshqaruv jarayoni bosqichlari. Boshqaruv uslublari. Boshqaruvga yangicha yondashuv: yakka shaxs va jamoa bilan ishlash usullari. Boshqaruvda o'qituvchining roli: faol, tashabbuskor va ijodkor munosabati. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish o'quv yurtida, o'quvchi-talabalar jamoasida sog'lom psixologik muhit yaratish yo'llari.

Professional ta'lim muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari. Professional ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni. Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasi. Professional ta'limi muassasalarida pedagogik kengashi tarkibiy tuzilmasi va funksiyalari. Pedagogik oshkoralik demokratiya va o'z o'zini boshqarishi asosida amalga oshirilishi to'g'risida zaruriy bilimlarni tarkib toptish.

**15-mavzu. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shakllari va vositalari**

Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish. Professional ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari bilan talabalarni tanishtirish ularda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

**II. Amaliy mashgulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashgulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun moddalarini chuqur tahlil qilish va o'rganish. O'zbekiston respublikasi Prezidentining PQ 5812- sonli qarori bilan tanishish va tahlil qilish

| | |
|---|---|
| | 2. Kasbiy ta'lim pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi<br>3. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohotlari<br>4. Kasbiy ta'limning dolzarb pedagogik muammolari<br>5. Ta'limni standartlashtirish.Professional ta'lim mazmuni, maqsad va vazifalari.<br>6. O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari, kasblar yo'nalishlari bo'yicha Umumdavlat Klassifikatori<br>7. Kasb ta'lim pedagogikasining didaktik tamoyillari<br>8. Professional ta'limda ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchining asosiy vazifalari<br>9. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkiliy shakllari<br>10. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkiliy vositalari ularni turkumlanishi<br>11. Ta'lim metodlari. Professional ta'limda mashg'ulotlarni tashkil etishda ulardan foydalanish metodikasi<br>12. Pedagogik faoliyati va pedagogik qobiliyat<br>13. O'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorati<br>14. Kasb-hunar ta'limini boshqarish<br>15. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, shakllari va vositalari<br>Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o 'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.<br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem, guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**III. Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.**<br>Talabalar tavsiya etilgan mavzulardan tanlab olib referat shaklida yozib uni himoya qiladilar.<br>**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**<br>1. Kasbiy tayorgarlik, kasbiy ta'lim tushunchalarini tushuntirish<br>2. Zamonaviy kasbiy pedagogikaning rivojlanishiga malakat va chet el olimlarining qo'shgan hissasi/<br>3. O'zbekiston respublikasida professional ta'limni tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi<br>4. O'rta Osiyo hududida hunarmandchilikning rivojlanishi<br>5. O'zbekiston Respublikasining turli rivojlanish bosqichlarida kasbiy ta'lim<br>6. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi rivojlanishining omillari<br>7. Ta'lim tizimini isloh qilishning mohiyati<br>8. Professional ta'lim va ishlab chiqarish o'zaro bog'liqligini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari<br>9. Kasbiy layoqat, kasbga tanlab olish<br>10. Bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanish jarayoni<br>11. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kasbiy ta'lim sifatini oshirish |
| | 12. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kasbiy ta'limning qiyosiy tahlili<br>13. Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyasi.<br>14. O'qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili, yangilik kiritishning samarasi.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.<br>**Laboratoriya ishlari, Seminar mashgulotlari, (Kurs ishi), o'quv rejada ko'rsatilmagan.** |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>- kasbiy pedagogikani o'rni, axamiyati va turlari; tuzilishi, ishlash prinsiplari, xususiyatlarini va ish jarayoni to'g'risida ***tasavvurga*** **ega bo'lish; (bilim)**<br>- fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi va joriy, oraliq nazorat turlarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi lozim.va ulardan foydalana olish ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma);**<br>fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirishi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi, hamda rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish kompetentsiyasiyalariga ega bo'lishi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** **(malaka).** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Abduquddusov O va boshq. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. – T.O'MKHTTKMO va UQTI, 2011 y.<br>2. Avazboyev O.I., Ismadiyarov Y.U. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Cho'lpon , T,: - 2020, -319.<br>3. Anarkulova G.M. Ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021 y. – 215 b.<br>4. Ishmuxammedov R.J. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi. 2008.<br>5. Muslimov N.A. Qo'ysinov O.A. Abduraimov SH.S. Kasb ta'lim metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018.<br>6. Olimov Q. va boshq. Kasb ta'limi uslubiyati. – T.: "Iqtisod-moliya", 2006.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar** |

| | |
|---|---|
| | 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2017 yil.<br>2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 23.09. 2020 y.<br>3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.<br>5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.<br>6. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.<br>7. Batishev S.Y., Novikova A.M. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik. Izdaniye 3-e, pererabotannoye. – M.: Izd-vo YEGVES, 2009. – 456 s.<br>Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T. 2010 y.<br>**Axborot manbaalari**<br>http://planetadisser.com - dissertatsiyalar katalogi<br>http://www.bestdisser.com - referatlar, diplomvakurs ishlari.<br>http://www.edu.uz/ - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.<br>www.gov.uz – O'zR ning hukumat portali.<br>http://www.press-service.uz<br>http://www.gov.uz |
| 7. | **Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>**1. Badalov Sunatullo Mamadiyevich – QarMII, *"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis"* kafedrasi *dotsenti, t.f.f.d.*** |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**1. Maxamov X.T.**–*Qarshi Davlat universiteti dotsenti, t.f.n.*<br>**2. Choriyeva D.N.**–*QarMII"Umumtexnika fanlari" kafedrasi dotsentit.f.f.d.* |